



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

“MA’NAVIYAT” LEKSIK-SEMANTIK KATEGORIYASIDA GRADUONIMIK SINONIMIYA

Dildora SHARIPOVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasidagi sinonimlarning graduonimik munosabati tahlil qilingan. Graduonimik sinonimiya tilshunoslikda bir semantik maydon doirasida joylashib, ma’no darajasi jihatdan farqlanuvchi sinonim birliklarning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Maqolada “ma’naviyat” leksik kategoriyasidagi sinonimlarning graduonimik munosabati va ular orasidagi semantik va struktur, uslubiy munosabatlar haqida ayrim mulohazalar aks ettirilgan. Shuningdek, tadqiqotda sinonimik qatlamlarning shakllanishi, ularning leksik-semantik darajalanishi hamda ma’naviy tarbiya jarayonidagi o‘rni tahlil etiladi. “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasida graduonimik sinonimiyaning o‘rganilishi til birliklari orqali ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni chuqurroq anglash va ularni ilmiy-nazariy jihatdan izohlash imkonini beradi. Bu esa tilshunoslikda sinonimiya masalalarini yanada takomillashtirishga hamda nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi, sinonimiya, graduonimiya, sema, semema, nomlash funksiya, atash funksiya.

Graduonymic Synonymy in The Lexico-Semantic Category “Ma’naviyat”

Abstract

In this article, the graduonymic relationship of synonyms in the lexico-semantic category "Spirituality" is analyzed. Graduonymic synonymy in linguistics is a specific form of synonymous units that are located within one semantic field and differ in meaning level. The article reflects some considerations about the graduonymic relationship of synonyms in the lexical category "spirituality" and the semantic, structural, and stylistic relationships between them. The study also analyzes the formation of synonymous layers, their lexico-semantic gradation, and their role in the process of spiritual education. The study of graduonymic synonymy in the lexico-semantic category "spirituality" allows for a deeper understanding of spiritual and moral values through language units and their scientific and theoretical interpretation. This serves to further improve the issues of synonymy in linguistics and to create an important scientific basis for theoretical and practical research.

Keywords: Lexical category “Spirituality”, synonymy, graduonymy, seme, sememe, naming function, naming function.

* Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti, dildorarashitovna123@gmail.com

Bugungi ijtimoiylashuv va fan-texnika taraqqiy etayotgan bir davrda kashfiyot va yangiliklar hayratga solmoqda. Bu olamshumul kashfiyotlar, yangiliklar esa taraqqiyot bilan birga ayrim hollarda tanazzulga ham olib kelmoqda. Xususan, insonning ma'naviy-axloqiy yuksalishdan ko'ra moddiy farovonlikni afzal ko'rishi, ma'naviyatsizlik, axloqsizlik, sifatsizlik sari odimlashi ba'zi hollarda tanazzulga sabab bo'lmoqda. Shu sababdan jamiyatda ma'naviy-axloqiy barkamol, intellektual yetuk yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lmoqda.

"Ma'naviyat" leksik kategoriyasidagi birliklar esa komil inson g'oyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu leksik birliklarning mazmun mohiyatini tushuntirish, yoshlar ongiga singdirish, bugungi kunda, tilshunoslik fanining muhim vazifalaridan biri sanaladi. Bu esa kategoriyaning semantik strukturasi bilan bevosita bog'liq. Shu boisdan mazkur leksik kategoriyaning sinonimik munosabati va ularning graduonimik xususiyati haqida ba'zi tahlillarga e'tibor qaratamiz.

Leksemalar ma'nosi ifoda va vazifa semalariga asoslanadi. Sinonimiya ma'no yaqinligi va o'xshashligiga asoslangan leksik munosabat bo'lib, sinonimlarning ma'nolari o'rtasidagi semalarning farqlari, uslubiy har xillikni ta'minlovchi vositalar, kontekstual ma'nolarning turli ko'rinishlari o'zaro farqlanadi. Mazkur paradigmada graduonimik munosabat o'ziga xos xususiyatga ega.

Graduonimiya — bir xil semantik maydonda joylashgan so'zlar o'rtasida ma'no darajalari bo'yicha farqlanishni ifodalaydi. Tilshunoslikda ushbu ikki hodisaning o'zaro munosabati va ularning tasnifi bo'yicha turli tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, bu sohada turli mavzular tahlillari hali ham o'z yechimini topgani yo'q. Jumladan, graduonimiya yuzasidan tadqiqot olib borgan Bozorov graduonimiya va sinonimiya hodisasining munosabati haqida shunday xulosaga kelgan: "Graduonimiya va sinonimiya hodisalari o'zlarining asos belgilariga ko'ra keskin farqlanadilar. Zero, sinonimiya ikki va undan ortiq leksema va frazema sememalarining aynanligiga asoslansa, graduonimiya sememalar asosiy semalardagi gradatsiyali farqlanuvchiga tayanadi. Bundan sinonimlardagi asosiy ma'nolarning tengligi, graduonimiyada esa, teng emasligi ma'lum bo'ladi" (Bozorov, 1997, 84-b.) deya fikr bildiradi. Demak, graduonimiya sinonimiya hodisasidan farqli hodisa bo'lib, ma'nodosh so'zlarda denotatlarning farqlanishi, har xilligi, belgining o'suvchi, kuchayib boruvchi belgilari bilan farqlanadi.

Tilshunos olim G'.Rahmonov o'zining "O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabati" (Rahmonov, 2018, 97-b.) nomli dissertatsiyasida "So'zlarning ma'no jihatidan bir xil bo'lishi sinonimiya hodisasi deb, yuritiladi. So'z leksik ma'nolaridagi paradigmatic munosabatni semantik jihatdan eslatuvchi yana bir hodisa mavjud bo'lib, unda so'zlar ma'no farqlanishiga asoslanadi. Bu lisoniy hodisa esa, tilshunoslikda darajalanish (graduonimiya) hodisasi nomi bilan ifodalanadi. So'zlar graduonimik lug'atlarining yaratilishi sinonimlar va

graduonimlarni ajratishga yordam beradi” (Rahmonov, 2018, 97-b.) deya sinonimiya va graduonomiya orasidagi farqlarni ko‘rsatib bergan.

Yuqoridagi ta’riflardan anglaymizki, sinonimiya va graduonomiya bir-biridan ayrim jihatlari bilan farq qiladigan tushuncha va ayni vaqtda bir mavzu yuzasidan amalga oshadigan semantik jarayondir. Biroq “ma’naviyat” umumiy semali sinonim so‘zlar mavjudki, ular bir yadro atrofida birlashsa ham, semalarida farqlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu farqlar juda kichik bo‘lsa-da, ularda graduonimik munosabatlar mavjud ekanligidan dalolat beradi. Sh. Orifjonova “O‘zbek tilida lug‘aviy graduonomiya” (Орифжонова, 1990) shuningdek, yosh tilshunos olim F.Saidova o‘zining “Lug‘atlarda sinonim leksemalar talqini” (Сайдова, 2022) PhD dissertatsiyasida sinonimlar orasida graduonimik munosabat mavjudligiga ishora beruvchi so‘z va qo‘shimchalar haqida ma’lumot beradi. Quyida “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasidagi ayrim so‘zlardagi sinonimik munosabat va ular o‘rtasidagi graduonimik munosabat haqida to‘xtalib o‘tamiz.

“Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasidagi sinonim so‘zlarning darajalanishi turli jihatlarni qamrab olishi mumkin. **Hurmat-izzat-ehtirom** sinonimik qatoridagi so‘zlar O‘TILda quyidagicha izohlangan va bu izohlarga tayanib ular orasidagi o‘sib borish darajasini aniqlashimiz mumkin.

Hurmat – 1 Kimsa yoki narsaga bo‘lgan qadrlash, ulug‘lash tuyg‘usi; shunday tuyg‘uli munosabatni anglatadi. ((O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. 2022. 447-bet), 2022)

Izzat – 1 O‘zganing hurmat-e’tibor tuyg‘usi, shunday tuyg‘uli munosabat; hurmat ma’nosiga ega. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2022)

Ehtirom – Yuksak hurmat, izzat-ikrom ma’nolari bilan izohlangan. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. 2022. 584-bet)

“Hurmat”, “izzat” va “ehtirrom” leksemalari o‘rtasidagi munosabat graduonimik, ya’ni ular bir-biriga semantik tomondan yaqin ma’nolarga ega bo‘lsa-da, ma’no darajasi jihatidan farqlanadi. Ularning ma’no jihatidan joylashuvi quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

“Hurmat” leksemasi eng faol va barcha uslublar uchun umumiy ma’noga ega leksema. U kimgadir yoki nimagadir bo‘lgan ijobiy munosabatni, qadrlash va ulug‘lash tuyg‘usini bildiradi. “Hurmat” leksemasi subyekt va obyektga nisbatan muayyan darajadagi hurmatni, e’tiborni ifodalaydi, lekin bu his-tuyg‘u yuqori darajada ifodalanmaydi. U oddiy tanishlik, do‘stlik yoki rasmiy munosabatlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

“Izzat” leksemasi *hurmatga* nisbatan yanada kuchliroq va chuqurroq e’tiborni bildiradi. U o‘zganing hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lish, shunday munosabatda bo‘lish degan ma’noni anglatadi. *Izzat* leksemasi *hurmat* leksemasiga qaraganda ko‘proq ijtimoiy va axloqiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Izzatga sazovor bo‘lish uchun

odam ma'lum fazilatlarga, yutuqlarga ega bo'lishi, jamiyatda muayyan o'rinni egallagan bo'lishi kerak.

“Ehtirom” leksemasi eng yuqori darajadagi ijobiy munosabatni bildiradi. Ehtirom – bu yuksak hurmat, chuqur izzat va ulug'lash tuyg'usi. U nafaqat qadrlash va e'tiborni, balki hayrat, ta'zim va hurmatni ham o'z ichiga oladi. Ehtiromga sazovor bo'lish uchun odam nafaqat muayyan fazilatlarga ega bo'lishi, balki o'zining yuksak axloqiy va ma'naviy qiyofasi bilan boshqalarga ta'sir o'tkazishi kerak.

Sinonimik qatordagi leksemalar denotativ va konnotativ semalariga ko'ra *hurmat* leksemasi bosh so'z sifatida tanlab olinadi. Chunki *hurmat* leksemasi o'z qatoridagi leksemalar orasida eng keng qo'llanadigan va barcha uslublar uchun umumiy xoslangan leksemdir. Ko'pincha bu so'z *izzat* so'zi bilan juft holda qo'llanadi. Bu esa sinonimik qator nafaqat ma'naviy nuqtayi nazaridan, balki uslubiy jihatdan farqlanishini ham ko'rsatadi. Bu esa matnlarda, birikmalarda qo'llanishida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, *hurmat* va *izzat* so'zlarining birikuvchanlik xususiyatlari va nutqiy qurshovi *ehtirom* so'zinikidan ayrim hollarda farqlanadi. *Hurmat* va *izzat* so'zlari qilmoq, *ko'rsatmoq* kabi so'zlar bilan munosabatga kirishsa, *ehtirom* so'zi esa *ko'rsatmoq* fe'li bilan munosabatga kirishib, ko'proq yozma uslubga xosligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagi misollardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, “ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasidagi ayrim sinonim so'zlar semasida ham graduonimik munosabat ifodalanadi. Bu esa sinonimik munosabat chegaralarini belgilashda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Раҳмонов Ғ. (2018). *Ўзбек тилида лугавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати*. Фарғона.

(O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. 2022. 447-bet). (2022).

(O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. 2022. 584-bet). (2022). Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.

O'zbek tilining izohli lug'ati. (2022). Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.

Бозоров, О. (1997). *Ўзбек тилида даражаланиш*. Тошкент.

Орифжонова, Ш. (1990). *Ўзбек тилида лугавий градуонимия*. Тошкент.